

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA BIOLOGIK
KIMYONI O'QITISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI**

MAXAMMADJONOV TURSUNBOY A'ZAMJON O'G'LI.

Andijon davlat tibbiyyot instituti Biologik kimyo kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot oliv ta'lif tashkilotlarida biologik imyoni o'qitishning metodologik tamoyillari, o'qitishning innovatsion usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: metodologiya, pedagogik tamoyil, muvofiqlik tamoyili, verifikatsiya tamoyili, falsafikatsiya tamoyili, kontirreduksiya tamoyili.

Metodologiyaga ilmiy bilishning, voqelikni anglash va o'zgartirishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin. Masalan Yunonistonda geometriya yer maydonlarini o'lchashda normativ yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilgan va geometriya ilmini falsafani o'rganish uchun muhim metodologiya deb bilishgan. Platon maqbarasiga kiraverishdagi eshikka "kimki geometriyani bilmasa, bizning oldimizga kirmasin" deb yozib qo'yilgan ekan. Falsafada esa olamni anglashda Geraklitning logosk metodologiya vazifasini o'tagan. Metodologiya taraqqiyotiga Suqrot, Aristotel jiddiy hissa qo'shishgan. Forobiy sharqona fikrlash uslubi nuqtai nazaridan Aristotel asarlarini sharxlaydi. Bunday sharxlar Aristotel merosini o'rganishda metodologiya bo'lib kelgan. Ibn Sino o'zining xotiralarida Aristotelning "Metafizika" asarini 40 marotaba o'qib chiqsa ham hech narsa tushuna olmaganligini, bu asarning mazmuniga Forobiyning sharxlarini o'qigandan so'nggina tushunib yetganligini yozib qoldirgan. Metodologiya haqida F. Bekon, R. Dekart, J. Lokk, G. Galiley va boshqa yevropalik olimlar maxsus kitoblar yozishgan. Hamda, metodologiya rivojiga Kant, Fixte, Shelling, Gegel jiddiy hissa qo'shishgan. Gegel dialektik metodologiyaning asoslarini ishlab chiqdi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bugungi kunda sinergetika metodologiyasi olamning chigal muammolarini tadqiq etishda, halokatli portlashlar, nochiziqli o‘zgarish jarayonlarining mohiyatini tushunib yetishda, olamning vujudga kelishini ilmiy asoslashda kuchli evristik bilish quroli vazifasini o‘tamoqda.

Metodologianing umumilmiy tamoyillarida umumiyligi metodologiya va xususiy metodologik asos mavjud. Pedagogik fanlar metodologiyasining ilmiy metodologik tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- Muvofiqlik tamoyili - ilmiy bilishning bu sohasida bilimlaming yangi qoidalar, g‘oyalari konsepsiylar asosida tartibga solish.
- To’ldiruvchanlik tamoyili - tadqiqotning ko‘p obyektlari dunyoning zarraga o‘xshash oddiy obyektidan tortib inson va jamiyat kabi murakkab obyektlarigacha. Qarama-qarshi nazariyalarni umumlashtirish asosida to‘la tavsiflanishi.
- Verifikatsiya tamoyili - mohiyat e’tiborni hamda formal mantiqni yetarli asoslash.
- Falsafikatsiya tamoyili - bu tamoyilga binoan inkor etish orqali tekshirib ko‘rish imkonini bo‘lgan ilmiy bilim bo‘lishi kerak.
- Reduksiya tamoyili - ma'lum bir yaxlitlik tizim murakkabligi unga nisbatan sodda tarkibiy qismlari orqali bilishdir.
- Yaxlitlik tamoyili - tadqiq etilayotgan obyektlarning yaxlit xossalari boshqa bir ob’ektlar bilan aloqada bo‘lish.
- Kontirreduksiya tamoyili - elementar zarrachalardan tortib ijtimoiy tabiiy tizimlargacha hamma tabiiy obyektlarga, shuningdek tabiiy tilga rioya qilish.

Ta’lim va tarbiyada fanlararo bog‘liqliq tamoyili: insonni o ‘rganadigan fanlarni nazariy rivojlanishida deferensiatsiya holati bor bo‘lsada, ijtimoiy funksiya amaliyotida integratsiya tabiiy holatdir. Tabiiy fanlar bandida yangi fanlar paydo bolishi, fanning kengayishi, jamiyat taraqqiyotida fanning imkoniyatini oshishi insonshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqliq qonuniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Jamiyatni ijtimoiy rivoji inson, insoniylik, insoniyat triadasi insonshunoslik fanlari hamkorligini taqozo qiladi. Shaxsiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

izlanishlar olib brogan ilmiy tadqiqotchilaming fikricha, shaxsiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, chunki bu yondashuvlar jarayonida shaxs subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi. O’z o‘rnida turli xil omillar ta’sirida va shaxsning o‘z faoliyati natijalari asosida uning subyekt sifatida rivojlanishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdullaev SH.V., Muhitdinova D.X. Kimyo o’qitish metodikasi. –Namangan, 2003.
- 2.Abdullaeva N. Kimyo fanini o’qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning turli shakl va metodlari. - Urganch, 2011.
- 3.Aytbaeva A.B. Kurbanova G.D., Dauletjanova G.J “Biokimyo fanini o‘qitishda axborot - kommunikatsion texnologiyalarning roli” Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 1
- 4.Рустамов.М.М. Axborot texnologiyalari darslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.// “Elektron ta’lim” – “Электронное обучение” – “E-learning” June, 2023, No4, Vol. 2 Navoiy davlat pedagogika instituti.
- 5.Rustamov.M.M. Enhance students ' knowledge and skills with multimedia tools in an innovative educational environment.// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 10 OCTOBER 2023UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 43- page
- 6.10.M. Rustamov USE OF MODERN METHODS IN TEACHING “INFORMATION TECHNOLOGY” IN MEDICAL EDUCATION // SAI. 2023. №A7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-modern-methods-in-teaching-information-technology-in-medical-education> (дата обращения: 21.12.2023).

